

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK ZONIMLARNING  
QIYOSIY TAHLILI

Gafarova Shahnoza

*Samarqand davlat chet tillar instituti magistrant talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada xalq og'zaki ijodida hayvon nomlari, zoonimlarning ishlatilishi, ingliz va o'zbek tillarda zoonimlarning qiyosiy o'rganilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xalq og'zaki ijodi, maqol, salbiy xarakter, obraz, mazmun, ko'chma ma'no*

**KIRISH**

Xalq maqollarida hayvon nomlari ya'ni zoonimlarning qo'llanilishi juda ko'p uchraydi. Zoonimlar qo'llangan maqollarning deyarli barchasida majoziy xarakter ifodalanadi. Hayvon obrazlarini keltirish orqali insonga xos xususiyatlar hayvonlar orqali ko'rsatiladi, ya'ni maqollarda keltirilgan ibratli fikr aynan maqolda keltirilgan hayvonga qarata emas, aksincha, insonlarga qarata aytiladi. Ko'pincha, hayvonlar vositasida, salbiy xarakterli insonlarga dashnom beriladi, tanqid qilinadi. Har bir millatning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiluvchi maqollari mavjud. Biz ushbu kichik tadqiqotimizda o'zbek va ingliz xalq maqollarini tuzilish hamda semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilamiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Masalan, *Almost never killed a fly* –ushbu ingliz xalq maqolini o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, hatto pashshani ham o'ldirmagan gapi hosil bo'ladi, biroq o'zbek tilida pashsha hasharoti biroz salbiy ma'no kasb etadi. O'zbek tilida *almost never killed a fly* paremik birligining muqobili sifatida *chumoliga ham ozor bermagan* yoki *qo'y og'zidan cho'p olmagan* kabi frazeologik birligini keltirishimiz mumkin.

*An as between two bundles of hay*—ushbu paremik birlik o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri *Ikki bog' pichan orasida arosatda qolgan eshak* tarzida tarjima qilinadi. Ammo semantik jihatdan mos keluvchi frazema esa *Ikki quyovning ketidan quvgan ikkalasidan ham quruq qolar*. Muloqot jarayoniga tayyor holatda olib kiriluvchi yuqoridagi kabi birliklar xalqlarning joylashuv hududi, milliy urf-odatlaridan kelib chiqqan holatda birbiridan farqlanadi. Ammo barchasining markazida shaxsga tarbiya berish, ya'ni didaktik maqsad ko'zlanganligi bois semantik jihatdan bir xilliklarga ham ega.

**MUHOKAMA**

Zoonimlar qatnashgan maqollar ingliz tilida ham o'zbek tilida ham ikki xil maqsadda, ya'ni salbiy jihatlarni yoritish yoki tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilganligi

bilan ham birlashuvchi xususiyatga ega. Buni quyidagi maqollarning semantik tahlili orqali ham ko'rib o'tishimiz mumkin:

1. **Bats in the belfry, To have-** Minorasida ko'rshapalagi bor, ya'ni telba, o'zbekcha muqobili **Telba tosh yig`ar**. Bu maqolda ko'rshapalak zoonimi ishtirok etgan bo'lib, salbiy ma'no ifodalash uchun xizmat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ingliz xalq maqollarida uchragan hayvon nomlari o'zbek xalq maqollarida umuman ishtirok etmasligi ham mumkin. Yuqoridagi maqolda qo'llangan ko'rshapalak zoonimi o'zbek xalq maqollarida qatnashmaydi. Buning sababi esa, maqollar tarkibida keladigan hayvon nomlari ham o'sha xalq yashash hududining geografik joylashuvi, tabiatiga va eng asosiysi, qaysidir hayvonlarning ular hayotidagi o'rni va ahamiyati qanchalik katta yoki kichikligiga bog'liqligidadir.

2. **Better be the head of a dog than the tail of a lion** - Arslonning dumi bo'lgandan ko'ra itning dumi bo'lgan afzal. Bu maqolga o'zbek tilidagi Arslonning o'ligi- sichqonning tirigi maqoli ekvivalent bo'la oladi.

3. **Buy a pig in a pake, to-** Qop ichidagi cho'chqani ko'rmasdan sotib olmoq.

Bu maqolning o'zbek tilidagi semantik jihatdan muvofiqi quyidagichadir:

**Savdogarga sunma bo'yningni,  
Puch yong`oqqa to'ldirar qo'yingni.**

4. **Cat in gloves catches no mice a-** Mushuk qo'lqopda sichqon tutolmas.

Bu maqolni "**Burga tutmoq uchun ham barmoqni ho'llamoq kerak**" maqoli bilan bir xil ma'no ifodalaydi deyishimiz mumkin.

5. **Cat`s away, when the mice will.**

O'zbekcha ma'nosi: Mushuk ketsa, sichqon o'yin tushar.

Ekvivalenti: Mushukning o'lgani- sichqonga to'y.

6. **Fish begins to stink at the head.**

O'zbekcha ma'nosi: **Baliq boshidan sasiy boshlaydi.**

Ekvivalenti: Baliq boshidan chiriydi.

7. **Dogs bark, the but caravan goes on.**

O'zbekcha ma'nosi: **Itlar hurar, karvon esa o'tar.** Bu maqol to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda ham muqobil variant bilan mosdir.

8. **Dogs lie, let sleeping.**

O'zbekcha ma'nosi: Uxlab yotgan kuchukni uyg'otmang.

Ekvivalenti: Yotgan ilonning quyrug`ini bosma.

### **NATIJA**

Hayvon obrazlari qatnashgan ingliz va o'zbek maqollarining har ikkala tildagi variantida har doim ham bir xil hayvonlar ifodalanmasligi mumkin. Yuqoridagi maqolda inglizcha variantda "dog", ya'ni "it" ishlatilgan bo'lsa, o'zbekcha variantida "ilon" obrazidan foydalanilgan. Lekin bu o'zgarish bilan maqolning mazmuni



o'zgarib qolmagan, har ikkalasida ham ehtiyotsizlik, e'tiborsizlik ma'nosi ifodalangan.

O'zbek va ingliz xalq maqollarini solishtirib ko'rilganda "it", "mushuk", "baliq" zoonimlari nisbatan ko'proq uchraydi.

### **XULOSA**

Yuqoridagilarga xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, paremiologik birliklar har bir xalqning milliy urf-odatini hamda an'analarini verbal vositalar orqali ko'rsatib beradi. Bu birliklarni qiyosiy o'rganish xalqlarning o'ziga xosligi hamda birlashtiruvchi jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Paremik birliklarda qo'llangan zoonimlar ularning hududiy joylashuvi, milliy mentaliteti, diniy qarashlari bilan bog'liq holatda bir-biridan farqlanadi. Ammo semantik jihatdan bir xil ma'no ifodalaydiganlari ham talaygina. Tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilganda, asosiy e'tibor paremalarning shakl xususiyatiga emas, balki semantikasiga qaratiladi. Hayvon nomlari turlicha bo'lishi mumkin, biroq ma'naviy jihatdan bir xil bo'lgan birliklar mavjud.

### **REFERENCES:**

1. Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, 1978.
2. Karamatova M.K., Karamatov H.S. Proverbs Maqollar. Toshkent, Mehnat, 2000.
3. Shayxislamov, N. (2021). ONA TILI DARSLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METOD-KAKOGRAFIYA USULIDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 1(3).
4. Shayxislamov, N. (2020). LINGVISTIKA, UNING ZAMONAVIY TURLARI HAMDA ULARNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TALQINI. *Scientific progress*, 1(2).
5. Шайхисламов, Н. (2020). МАВҚЕИ ЛИНГВОКУЛТУРОЛОГИЯ ДАР СИСТЕМАИ ФАНҲО ВА ВОБАСТАГИИ ОН БО ЭТНОЛИНГВИСТИКА, СОТСИОЛИНГВИСТИКА ВА ЭТНОПСИХОЛИНГВИСТИКА. *Academic research in educational sciences*, (4).
6. Shayxislamov, N. (2021). Lingvokulturologiya - zamonaviy tilshunoslik yo'nalishi sifatida: tarixi va nazariyasi. *Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muammo va yechimlar*, 61-62.
7. Shayxislamov, N. (2021). Nutqning sotsiolingvistik - paralingvistik va ekstralingvistik vositalari haqida mulohazalar. *The 21st Century Skills for Professional Activity*, (1), 20-24.



8. Шайхисламов, Н. (2020). Когнитив тилшуносликда концепт: “Тўй” концепти ва унинг универсал табиати. *O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 54-60.

9. Shayxislamov, N. (2020). Hozirgi zamon tilshunosligida til va madaniyatning talqini. *Scientific progress*, 1(1).

10. Shayxislamov, N. (2020). So'z urg'usining o'zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. *O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 13-14.

